



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 25-dekabr, № 272 (9167)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



OLIY DARAJADAGI KELISHUVLARNI AMALGA OSHIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

24-dekabr kuni bo'lib o'tgan telefon muloqotida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevni tavallud kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon yetakchisining mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, uni birlashtirish, barqaror taraqqiyotini ta'minlash va xalqaro nufuzini oshirishdagi tarixiy rolini alohida qayd etdi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston – Ozarbayjon do'stlik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Joriy Iqtisodiy kooperatsiya yilida birgalikda amalga oshirilgan ishlar unumli bo'lgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajada samarali muloqotlar va almashinuvlar davom etmoqda. O'zaro tovar ayirboshlash jadal sur'atlarda o'sib bormoqda, “Yo'l xaritasi” asosidagi 20 ta ustuvor yo'nalishdagi loyihalar faol pallaga kirgan.

Tadbirlarga boy madaniy-gumanitar almashinuvlar dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston va Ozarbayjon rahbarlari xalqaro kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, kelgusidagi tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

Yaratilgan shart-sharoitlar va berilgan imtiyozlar hisobiga so'nggi sakkiz yilda viloyatga 3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, 4 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilgan. Sanoat hajmi ikki barobarga oshib, joriy yilda 17,2 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Charm-poyabzal, zargarlik, qurilish materiallari va farmatsevtika kabi yangi tarmoqlar shakllangan.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ham yaxshi natijalarga erishildi. Joriy yilda 126 ming oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 9,3 foizdan 5,6 foizgacha pasayishi kutilmoqda. “To'palang” suv omboridan quvur tortish orqali Sherobod, Boysun, Bandixon, Muzrabot, Oltinsoy, Angor, Jarqo'rg'on va Denov tumanlarida yashovchi 2 million aholining ichimlik suvi muammosi to'liq hal etilgan.

Shunga qaramay boy tabiiy resurslar va yetarli infratuzilmasi bo'la turib Surxondaryo viloyati sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va turizm sohaslarida qator hududlardan ortda qolayotgani qayd etildi. Xususan, viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo viloyatiga nisbatan 1,5 karra, Jizzax viloyatidan 1,8 barobar va Xorazm viloyatidan 2 barobar kam.

Meva-sabzavot eksporti ham Samarqand, Toshkent viloyati, Farg'ona va Xorazm ko'rsatkichlaridan past. Viloyatdagi qazilma boyliklar 600 milliard dollarga baholangan, biroq bu salohiyatning hatto 10 foizi ham ishga solinmagani qayd etildi.

Shu munosabat bilan viloyatni investitsiya, ish o'rni, aholi daromadi va eksport sur'atlari eng tez o'sadigan hududga aylantirish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda kelgusi yilda viloyatda aniqlangan 114 ta qazilma konlar zaxirasi asosida yangi loyihalarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi. Kelgusi yilda ushbu konlarda 3,2 milliard dollarlik 91 ta loyihani boshlash, shundan 2 milliard dollarlik qismini ishga tushirish rejalari belgilandi.

Shuningdek, drayver loyihalar infratuzilmasiga 175 milliard so'm ajratiladi, buning hisobiga 1 trillion 200 milliard so'mlik 36 ta loyiha amalga oshirilib, 9 mingta ish o'rni yaratiladi.

Turizm sohasi muhokama qilinarkan, viloyatda atigi 47 ta mehmonxona faoliyat yuritayotgani, 4 va 5 yulduzli yoki brend mehmonxonalar mavjud emasligi qayd etildi. Boysun, Sangardak va Omonxona kabi yuqori turistik salohiyatga ega hududlar imkoniyatlarini to'liq ishga solib, mehmonxonalar sonini

ko'paytirish, yangi turizm yo'nalishlari va obyektlarini tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Qishloq xo'jaligida meva-sabzavot ishlab chiqarishning 60 foizi Denov, Sherobod, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Muzrabot va Sariosiyo tumanlari hissasiga to'g'ri kelayotgani qayd etildi. Kelgusi yilda Angor, Qiziriq, Termiz, Uzun hamda ixtisoslashtirilgan boshqa tumanlarda ham eksportni ko'paytirish bo'yicha aniq loyihalar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda Surxondaryo viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo'yicha rejalarni taqdimot qildi.

Davlatimiz rahbari hududda yo'llarni ta'mirlash, uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash bo'yicha ham ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi T. Norboyevaning O'zbekiston xalqiga MUROJAATI

Qadrlı vatandaşlar!

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etish lozimki, mazkur islohotlar oson bo'lmagan sharoitlarda, jahon miqyosida xalqaro vaziyat murakkablashib, turli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy inqirozlar avj olayotgan bir vaqtda o'tkazilmoqda.

Bosh maqsad aniq va ravshan – **inson qadrlini ulug'lash, adolatni qaror toptirish va davlatni xalqqa xizmat qiluvchi tizimga aylantirish.**

Bu islohotlar **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida** amalga oshirilayotgan izchil va qat'iy siyosatning natijasidir va eng avvalo, mamlakatni ochiq, adolatli va insonparvar davlat sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

Bugun **“Fuqarolar davlatga emas, davlat fuqarolarga xizmat qilishi shart”** degan tamoyil hayotimizga chuqur singib bormoqda.

Davlat xizmatlarini soddalashtirish, raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, biz bir haqiqatni ochiq tan olishimiz kerak: tanlangan yo'l oson emas. Bugun islohotlar yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri, bu – **korrupsiya omili.**

Korrupsiya – faqat iqtisodiy zarar emas. Bu adolatga, inson huquqlariga, jamiyatga bo'lgan ishonchga putur yetkazadigan jinoyatdir.

Bugun u butun dunyo uchun global tahdidga aylangan.

Shu sababli mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish **davlat siyosati darajasiga** ko'tarilgan.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”**gi Qonunning qabul qilinishi sohada mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Ilgari bunday yagona

va kompleks huquqiy asos mavjud emas edi.

Qonun va uning asosida qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda **tizimli, ochiq va institutsional yondashuvni** shakllantirdi.

Eng muhimi, bu kurash faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasdan korrupsiyani keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratildi.

Shu maqsadda muhim institutsional islohotlar amalga oshirildi. **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi. Parlament palatalarida **tegishli qo'mitalar**, mahalliy Kengashlarda **korrupsiyaga qarshi komissiyalar** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ayniqsa, **Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining** tashkil etilgani jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim qadam bo'ldi.

Milliy kengash tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlar xolis

o'rganilmoqda, kamchiliklar yuzasidan aniq vazifa va chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, joriy yil 5-mart kuni bo'lib o'tgan Milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni belgilab berdi.

Davlat rahbari tomonidan **55 ta aniq tashabbus** ilgari surildi va korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa ekani yana bir bor ta'kidlandi.

Shu asosda qator amaliy ishlar qilindi. Qonunchilik takomillashtirildi, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi, bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Ushbu islohotlar korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat ularning **oqibati bilan emas, balki profilaktik va tizimli yondashuvni** joriy etish imkonini bermoqda.



PREZIDENT SOVG'ALARI

bolajonlarga cheksiz quvonch ulashmoqda

Ayni kunlarda yurtimiz bo'ylab Yangi yil shodiyonasi shukuhli kezmokda. Barchanang yuz-ko'zida tabassum, qalbida o'zgacha hayajon. Ayniqsa, bu bayramni bolajonlarning intizorlik bilan kutadigan sevimli ayyomi, desak, mubolag'a emas.



Shukuh

Har yili o'tkaziladigan “Prezident archasi” tadbirlari bolalar qalbida unutilmas xotiralar qoldiradi. Ayyom doirasida mehrga muhtoj bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tegishli vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda xayri loyihalarni amalga oshirmoqda.

Joriy yilda ham shunday bo'laydi. An'anaga muvofiq, mamlakatimiz bo'ylab bolajonlar uchun tayyorlangan Prezident sovg'alari joylardagi Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, “SOS – O'zbekiston

bolalar mahallalari”, Go'daklar uylari, oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, shuningdek, Vatanimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining farzandlariga yetkazib berilyapti.

Ma'lumot uchun aytish joizki, Prezident sovg'alari tarkibidan 24 turdagi o'quv qurollari hamda 34 xil shirinliklar o'rin olgan bo'lib, ular bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, bayram kayfiyatini yanada ko'tarishga xizmat qilmoqda.



KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVGA ERISHISH KAFOLATLARI

Keyingi 8-9 yil ichida sud organlari faoliyatini tubdan demokratlashtirish, ochiq hamda shaffof tartib-taomillar asosida rivojlantirish maqsadida yetmishdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. E'tiborlisi, mazkur huquqiy hujjatlar har biri milliy sud tizimi faoliyatini takomillashtirish borasida ham shaklan, ham mohiyatan fundamental yangiliklarni olib kirdi. Mamlakatimiz sud tizimi tarixida ilgari mavjud bo'lmagan, xalqaro talab va standartga mos yangi tuzilma hamda yangi organlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Aniq izchillik va muayyan tadrijiylikka asoslangan mana shunday huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Prezidentimizning shu yil 18-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada

takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni imzolandi.

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz huquqiy taraqqiyotining sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq tub islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanishi bilan, ya'ni 2017-yilda yangi tahrirdagi “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi va u Konstitutsiyaviy sudning yangilanish davrini boshlab berdi. 2021-yil 27-aprelda esa “O'zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunda mamlakatimizda tarixan birinchi marta Konstitutsiyaviy sud sudyasini almashtirib bo'lmasilik prinsipi joriy etildi.

Sudya o'z vakolatlari davrida almashtirilmasiligi, sudyaning vakolatlari qonunda belgilangan tartibdan hamda asoslardan boshqacha tarzda tugatiliishi yoki to'xtatiliishi mumkin emasligi belgilandi. Ushbu demokratik norma Konstitutsiyaviy sud sudyalarining mustaqilligi hamda daxlsizligi kafolatlarining huquqiy asoslarini mustahkamlashda, shuningdek, odil sudlovga oid xalqaro talab va standartlarda belgilangan sudyalarning almashtirilmasiligi prinsipini amalda ta'minlashning huquqiy asoslarini mustahkamladi.



IZCHIL MINTAQAVIY DIPLOMATIYA – TASHQI SIYOSATNING MUHIM TAMOIYILI

Dunyo miqyosida geosiyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar shiddat bilan yuz berayotgan, turli tahlikalar kuchayib borayotgan davrda har bir davlat barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'ziga xos yo'l izlashi tabiiy. Bu borada mamlakatimizning pragmatizm, ochiqlik hamda o'zaro manfaatli hamkorlik prinsiplariga asoslangan tashqi siyosati e'tiborga molik.

Aytish joizki, keyingi yillarda O'zbekiston tashqi siyosati uchun samarali va faol kechdi. Ayniqsa, dunyoning barcha davlati, xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro teng huquqli va manfaatli munosabat izchil davom ettirildi. Tashqi siyosiy kun tartibidagi barcha tendensiyalarni mohirlik bilan anglash va milliy manfaatni hisobga olish asosida, avvalo, yangi mintaqaviy diplomatiya O'zbekistonning qiyofasiga aylandi.



YANGI O'ZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 18 – 20-dekabr kunlari Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrfi mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Yaponiya Imperatori, parlament rahbariyati, yetakchi kompaniyalar va moliyaviy institutlar menejerlari, Bosh vazir bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Shuningdek, Prezidentimiz

Aks sado

"Markaziy Osiyo + Yaponiya" formatidagi ilk sammitda ishtirok etdi.

Ikki davlat rahbarlari tomonidan Kelgusi avlodlar uchun kengaytirilgan strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma bayonot imzolandi. Mazkur hujjat o'zbek – yapon aloqalarining ko'lamini tubdan kengaytirib, ikki davlat munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

ilgari surilgan tashabbuslar va iqtisodiy sohada erishilgan kelishuvlar mamlakatimizda ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash, uning sanoatlashtirilishini jadallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shubhasiz, muhim xalqaro voqea sifatida "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqotining ilk sammiti alohida e'tibor markazida bo'ldi. Unda O'zbekiston Prezidenti mintaga uchun nihoyatda muhim bo'lgan Yaponiya bilan hamkorlikka doir takliflarni ilgari surdi.

Ular orasida ham institutsional asosni mustahkamlash – davlat rahbarlari darajasida sammitlarni har ikki yilda bir marotaba o'tkazish, "Markaziy Osiyo – Yaponiya 2040" hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish, ham sohaviy yo'nalishdagi takliflar – "Sifatli infratuzilma" dasturini ishga tushirgan holda Markaziy Osiyo infratuzilma va sanoatni rivojlantirish investitsiya fondini ta'sis etish, "Markaziy Osiyo – Yaponiya" raqamli xabini yaratish, seysmik xavfsizlik va logistika tarmog'ini rivojlantirish, "yashil" energetikani taraqqiy toptirish, seysmik xavfsizlik va ta'lim sohalarida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan takliflar ushbu muloqotning samaradorligiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, yapon ommaviy axborot vositalarida ushbu tadbir faol yoritilib, uning alohida istiqbolli ahamiyati qayd etildi. Yaponiya Bosh vaziri o'si intervyyusida Markaziy Osiyo mamlakatlari geografik joylashuvi, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda o'zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan Kunchiqar mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, katta salohiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Yaponiya rahbariyatining bunday pozitsiyasi mintaqamizda yaxshi qo'shni, ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirish borasida Prezidentimiz doimiy e'tibor qaratib kelgan ulkan ishlarning e'tirofi deb baholashimiz kerak.

Davlat rahbari tomonidan

Yaponiyaga ushbu tashrif va tadbirlar davomida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar kelgusidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi. Ularni hayotga tatbiq etish davlat organlaridan, shu jumladan, Qonunchilik palatasidan ham parlamentlararo hamkorlik sohasida ushbu yo'nalishda tizimli ishlarni tashkil etishni talab qiladi.

Ulug'bek SHERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo'mitasi raisi.

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVGA ERISHISH KAFOLATLARI



O'zbekiston huquq tizimi yaqin tarixida (2023-yilda o'tkazilgan) ulkan voqelik sifatida muhrlangan konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida ham Konstitutsiyaviy sud o'zining eng muhim vazifa va vakolatlari doirasida o'ta muhim masalalarni hal qildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish haqida"gi qarorining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini o'zining tegishli qarori bilan tasdiqlab berdi.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni esa Konstitutsiyaviy sud hamda konstitutsiyaviy nazorat institutini rivojlantirishning yangi istiqbollari belgilab berdi. Hujjatda nazarda tutilgan eng muhim vazifalardan biri – bu konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish orqali Konstitutsiyaviy sud faoliyatida shaffoflikni oshirish.

Bugungi kundagi davlat organlarining faoliyatini raqamlashtirish tasavvur etib bo'lmaydi. Gap shundaki, tizimni raqamlashtirish orqali, birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari (shikoyatlari)ni o'z vaqtida, qonuniy ko'rib chiqish imkoniyati kengayadi. Ikkinchidan, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari bilan ishlash, muloqot o'rnatish jarayonidagi tartib-taomillar soddalashtirilib, bu boradagi ortiqcha byurokratik to'siqlar va murojaatchilarning sarsongarchilik yoki o'voragarchiliklari oldi olinishiga erishiladi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud tizimi faoliyatida ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik to'la ta'minlanishiga olib keladi.



Mazkur farmonning yana bir ahamiyatli jihati, mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazorat institutini yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalarning qo'yilganligida namoyon bo'ladi. Huquq nazariyasida shunday bir o'zgarma qoida belgilanganki, Asosiy qomus va Bosh qonun – har bir suveren davlatning huquqiy ramzi, o'ziga xos timsoli sifatida e'tirof etiladigan Konstitutsiyada qabul qilinadigan barcha normativ-huquqiy hujjatlarga mos bo'lishi kerak.

Konstitutsiyaviy nazorat institutining mohiyatini ham aynan mana shu, ya'ni qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari Konstitutsiyada belgilangan me'yorlarga zid emasligini qat'iy nazorat qilib berish vazifasi tashkil etadi. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tomonidan chiqarilayotgan yoki qabul qilinayotgan barcha hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi.

Sud tizimida uzoq yillar mobaynida ishlash kelayotgan faxriy sudya sifatida komil ishonch bilan aytishim mumkin, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirish hamda unga eng zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan hujjat yurtimizda konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish kafolatlarini mustahkamlashga huquqiy asos bo'ladi.

Ubaydulla MINGBOYEV,
O'zbekiston Sudyalari
assotsiatsiyasi raisi,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan yurist.

YANGI O'ZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 18 – 20-dekabr kunlari Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrfi mamlakatimiz hayotida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Yaponiya Imperatori, parlament rahbariyati, yetakchi kompaniyalar va moliyaviy institutlar menejerlari, Bosh vazir bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Shuningdek, Prezidentimiz

Aks sado

"Markaziy Osiyo + Yaponiya" formatidagi ilk sammitda ishtirok etdi.

Ikki davlat rahbarlari tomonidan Kelgusi avlodlar uchun kengaytirilgan strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma bayonot imzolandi. Mazkur hujjat o'zbek – yapon aloqalarining ko'lamini tubdan kengaytirib, ikki davlat munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

ilgari surilgan tashabbuslar va iqtisodiy sohada erishilgan kelishuvlar mamlakatimizda ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash, uning sanoatlashtirilishini jadallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shubhasiz, muhim xalqaro voqea sifatida "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqotining ilk sammiti alohida e'tibor markazida bo'ldi. Unda O'zbekiston Prezidenti mintaga uchun nihoyatda muhim bo'lgan Yaponiya bilan hamkorlikka doir takliflarni ilgari surdi.

Ular orasida ham institutsional asosni mustahkamlash – davlat rahbarlari darajasida sammitlarni har ikki yilda bir marotaba o'tkazish, "Markaziy Osiyo – Yaponiya 2040" hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish, ham sohaviy yo'nalishdagi takliflar – "Sifatli infratuzilma" dasturini ishga tushirgan holda Markaziy Osiyo infratuzilma va sanoatni rivojlantirish investitsiya fondini ta'sis etish, "Markaziy Osiyo – Yaponiya" raqamli xabini yaratish, seysmik xavfsizlik va logistika tarmog'ini rivojlantirish, "yashil" energetikani taraqqiy toptirish, seysmik xavfsizlik va ta'lim sohalarida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan takliflar ushbu muloqotning samaradorligiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, yapon ommaviy axborot vositalarida ushbu tadbir faol yoritilib, uning alohida istiqbolli ahamiyati qayd etildi. Yaponiya Bosh vaziri o'si intervyyusida Markaziy Osiyo mamlakatlari geografik joylashuvi, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda o'zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan Kunchiqar mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, katta salohiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Yaponiya rahbariyatining bunday pozitsiyasi mintaqamizda yaxshi qo'shni, ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirish borasida Prezidentimiz doimiy e'tibor qaratib kelgan ulkan ishlarning e'tirofi deb baholashimiz kerak.

Davlat rahbari tomonidan

Yaponiyaga ushbu tashrif va tadbirlar davomida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar kelgusidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi. Ularni hayotga tatbiq etish davlat organlaridan, shu jumladan, Qonunchilik palatasidan ham parlamentlararo hamkorlik sohasida ushbu yo'nalishda tizimli ishlarni tashkil etishni talab qiladi.

Ulug'bek SHERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo'mitasi raisi.

IZCHIL MINTAQAVIY DIPLOMATIYA – TASHQI SIYOSATNING MUHIM TAMOYILI



Mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) bilan munosabatlari yurtimiz tashqi siyosati va iqtisodiy strategiyasida alohida o'rin tutadi. Unga a'zo davlatlar bilan hamkorlik O'zbekiston uchun mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu, asosan, savdo, investitsiyalar, transport hamda logistika sohalarida faollashmoqda. Maqsad – o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilib, eksport salohiyatini oshirish.

YOII tashkil etilganidan buyon o'n yil ichida mustahkamlandi, a'zo va kuzatuvchi davlatlarning iqtisodiy salohiyati kuchaydi. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi muvaffaqiyatli integratsion birlashma sifatida shakllandi. YOII'da ishsizlik darajasi hozirda 2,8 foizni tashkil etadi, bu dunyodagi eng yaxshi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ittifoq har doim barcha qiziqqan xorijiy hamkorlar bilan sheriklikka ochiq bo'lib, Yevroosiyo, Afrika, Lotin Amerika davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalar faol rivojlanmoqda.

Tranzit yo'llari uchun katta salohiyat

Avvalo, aytish joizki, YOII hududining



strategik joylashuvi tranzit yo'llari uchun katta salohiyatga ega. Transport-logistika tarmog'ini rivojlantirish orqali ittifoq davlatlari o'zini dunyodagi muhim tranzit xabaridan biri sifatida e'lon qilishi mumkin. Bu esa qo'shimcha daromadlar va investitsiyalarni jalb etishga yordam beradi.

Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston, O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston transport yo'llarini, Rossiya "Shimol – Janub" tashabbuslarini ilgari suryapti. Yangilangan transport infratuzilmasi qurilishi va undan foydalanish esa yangi ish o'rinarining yaratilishiga sabab bo'ladi. Shu tariqa, aholi daromadlari oshadi va mintaqaviy iqtisodiy faollik kuchayadi.

Transport-logistika tarmog'i rivoji turli mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini o'zaro to'ldirishga ham xizmat qiladi. Bu mahsulotlar sifatini

oshirish imkonini beradi. Transport va logistika infratuzilmasining yaxshilanishi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, tovarlar, kapital hamda mehnat resurslarining erkin harakatini rag'batlantirib, birlashmaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Shuningdek, bu tadbirlar YOII'ni dunyodagi global iqtisodiy jarayonlarda yanada ta'sirli hamda raqobatbardosh ittifoqqa aylantirishga hissa qo'shadi.

YOII o'n yil avval tashkil etilgan bo'lib, unga Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Armaniston kiradi. O'zbekiston hamda Kuba kuzatuvchi davlat maqomida. Maqsad – birlashma hududida tovarlar, kapital va mehnat resurslarining erkin harakatlanishiga yo'l ochish.

Ikki tomonlama hamkorlik doirasida O'zbekiston hamda ittifoq davlatlari o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi oshib bormoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz mahsulotlarining YOII bozorlaridagi raqobatdoshligini, transport-logistika sohasidagi hamkorlik esa mintaqaviy tranzit salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Kuzatuvchi davlat maqomidagi to'rt yillik hamkorlik davrida O'zbekistonning YOII mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 80 foizga o'sdi va o'tgan yil yakuni bo'yicha 18 mlrd. dollarni tashkil

etdi. Savdo operatsiyalari nomenklaturasi, avvalambor, sanoat mahsulotlarini yetkazib berish hisobidan kengaymoqda. Qo'shma korxonalar va loyihalar soni uch barobar o'sdi.

Joriy yilning mart oyida Qo'shma ishchi guruhining to'rtinchi majlisi muvaffaqiyatli o'tkazilib, uning yakunida texnik to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish hamda ishbilarmonlik tashabbuslarini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

E'tiborli shundaki, mamlakatimiz kuzatuvchi davlat maqomida bo'lsa-da, 40 ta aniq chora-tadbirni qamrab olgan, uch yilga mo'ljallangan yangi rejani amalga oshirishga kirishdi. O'zbekiston, shuningdek, YOII'ning muhim tashabbuslarida, jumladan, "Yevroosiyo agro ekspres", elektron savdoni rivojlantirish, yuklarni tashishni raqamlashtirish va iqlim masalalari kabi loyiha-dasturlarda faol ishtirok etyapti. Shuningdek, elektron savdoni rivojlantirish, yuk tashishni raqamlashtirish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha tarmoq dasturlarida ham qatnashmoqda.

Sheriklikni
rivojlantirishning ustuvor
yo'nalishlari

Davlatimiz rahbari Oliy darajadagi Yevroosiyo iqtisodiy kengashining yig'ilishidagi nutqida YOII bilan sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi. Ushbu takliflar strategik ahamiyatga ega bo'lib, bir qator asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan.

Birinchidan, savdo va iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish taklifi berildiki, bu savdo to'siqlarini bartaraf etishni, texnik me'yorlarni yaqinlashtirish hamda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishni, O'zbekiston mahsulotlarining YOII bozoriga kirishini osonlashtiradi. O'zaro savdo hajmi oshaversa, tabiiyki, iqtisodiy o'sish ham, eksport salohiyat ham yuqorilaydi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish kooperatsiyasini hamda investitsiyalarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu qo'shma sanoat loyihalarini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, ish o'rinarini yaratish va texnologiyalar almashinuvini ta'minlaydi. YTTB'ning jalb etilishi moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, infratuzilmaviy, yashil va kichik biznes loyihalari uchun investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni tezlashtirish borasidagi taklif bildirildi. Raqamli platformalarni integratsiya qilish, elektron tijorat

hamda bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish savdo operatsiyalari samaradorligini oshiradi. Byurokratiyani kamaytirib, shaffoflikni ta'minlaydi.

Tehnologik platformalarga qo'shilishning samaralari haqida ham ko'p misollar keltirish mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekistonning YOII biotibbiyot, yangi materiallar, agrotexnologiyalar, energetika va robototexnika kabi yo'nalishlarni qamrab oluvchi texnologik platformalariga qo'shilishdan manfaatdorligi ta'kidlandi.

Beshinchidan, turizm salohiyatini oshirish zarurligi qayd etildi. Integratsiyalashgan axborot resurslarini shakllantirish mintaqaviy turizm mahsulotlarini o'zaro bog'lash, sayyohlar oqimini ko'paytirish hamda bu sohada qo'shimcha daromadlar olishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantiradi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan hayotiy takliflar O'zbekistonning YOII bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etishga intilishini ko'rsatadi.

Mash'al SAIDOV,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori.

ADABIY DO'STLIK – MA'NAViy KO'PRIK

Har bir millatning ma'naviy kamoloti,avvalo,uning milliy adabiyoti bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga,jahon adabiyoti durdonalari,ularda ilgari surilgan gumanistik g'oyalar ham xalq ruhiyatini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. Zero,dunyoda hech bir adabiyot faqat o'z milliy doirasida rivojlanmaydi. Asrlar davomida adabiyotlar o'zaro ta'sir va muloqotda bo'lib,bir-birini boyitib kelmoqda.

Tanlov

Bugun O'zbekistondagi yangilanishlar ruhi, davlatimiz rahbarining adabiyot va madaniyatga, xususan, adabiy aloqalar rivojiga qaratgan doimiy e'tibori ma'naviy hayotimizda yangi davrni boshlab berdi. Ayni paytda milliy adabiyotni jahonga keng targ'ib etish, chet el adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu e'tibor adabiyot orqali xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'priklar qurishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 4-iyundagi qaroriga muvofiq sohada Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotning ta'sis etilishi ayni yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim qadam bo'ldi.

Poytaxtimizda o'tkazilgan ushbu mukofotning ilk sovrindorlarini taqdirlash marosimi tom ma'noda adabiyot va san'at bayramiga aylandi. Mazkur mukofot milliy adabiyotimizni dunyoga, jahon adabiyotini esa o'zbek

kitobxoniga yaqinlashtirayotgan fidoyi tarjimonlar mehnatiga munosib rag'batdir. Tanlovga jami 60 nafar tarjimonning ijodiy ishlari qabul qilinib, ular xorijiy til mutaxassislari, tarjimashunoslar va adabiyotshunoslardan iborat ekspertlar tomonidan chuqur tahlil qilindi.

Tadbirda hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra g'olib topilgan ijodkorlar tantanali taqdirlandi. Jumladan, "O'zbek adabiyotining nasriy asarlaridan xorijiy tillarga tarjima" yo'nalishida Saudiya Arabistonidan Said Mahmud Said Mubashir, "O'zbek adabiyotining she'riy asarlaridan xorijiy tillarga tarjima" yo'nalishida rossiyalik jodkor Mixail Sinelnikov mukofotga loyiq ko'rildi. "O'zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga tarjima" yo'nalishida esa hindistonlik adiba Shamenaz Bano xalqaro mukofot sohibi bo'ldi.

Shuningdek, "Xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o'zbek tiliga tarjima" yo'nalishida O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov, "Xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga tarjima" yo'nalishida O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher va Tohir Qahhor, "Xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga tarjima" yo'nalishida



esa Nodirabegim Ibrohimova nufuzli mukofot bilan taqdirlandi.

Qo'shimcha rag'batlantiruvchi nominatsiyalarda esa Vafo Fayzulloh, turkiyalik Vali Savash Yelok hamda yosh jodkor Saidjalol Saidmurodov munosib e'tirof etildi. Ayniqsa, yosh tarjimon Saidjalol Saidmurodovning taqdirlanishi yosh ijodkorlarga yuksak ishonch va e'tiborning yorqin ifodasidir. Uning so'zlariga ko'ra, bunday nufuzli mukofot yoshlarni badiiy tarjima sohasida yanada jiddiy izlanishga, til va adabiyotni chuqur o'rganishga ruhlantiradi.

Hindistonlik Shamenaz Bano esa ushbu mukofot haqida o'z fikrlarini shunday bayon etdi:

– Mukofot sohiblari qatorida e'tirof etilganimdan baxtiyorman. O'zbek adabiyotining taniqli vakillari asarlarini qiziqib mutolaa qilaman. Ular chuqur ma'no, yuksak insonparvarlik va milliy ruh bilan sug'orilgan.

Ayniqsa, bolalar adabiyotidagi samimiylik va hayotlilik menda katta taassurot qoldiradi. Shu muhabbat va qiziqish ta'sirida Anvar Obidjonning "Meshpolvon" qissasini hind tiliga tarjima qildim. Mazkur asar shu yili Hindistondagi "Kreativ print media" nashriyoti tomonidan chop etildi. Ishonamanki, bu asar ko'p sonli hind kitobxonlariga manzur bo'ladi, ular tomonidan katta qiziqish bilan o'qiladi. Bu mukofot orqali tarjimashunoslik uchun tadqiqot obyektlari yaratiladi, o'zbek adabiyoti targ'iboti uchun uqlar kengayadi, yosh tarjimonlarni tarbiyalash ishlari yangi bosqichga ko'tariladi. Eng muhimi, adabiyot orqali xalqlar o'rtasidagi ma'naviy muloqot yanada mustahkamlanib, adabiy do'stlik abadiy do'stlikka aylanadi.

Ulug'bek RO'ZIMATOV ("Xalq so'zi").

JAVOHIRGA HAVASMAND QISHLOQ

Boyovut tumanidagi Tinchlik mahallasi "shaxmatchilar qishlog'i" sanaladi. Negaki, bu qishloqda shu sport turiga qiziquvchilar ko'p. Zero, shaxmat oz emas, 20 ga yaqin oila a'zolarining doimiy mashg'ulotiga aylangan. E'tiborlisi, mahallaning shaxmat bo'yicha o'z chempionati ham bor. Ushbu musobaqa yilda bir emas, har haftaning shanba yoki yakshanba kunlari tashkil etiladi. G'oliblarga beriladigan sovrini yo'q ushbu bahsda sovg'a emas, o'zaro tajriba almashish, mahoratni oshirish eng katta natija hisoblanadi. Bu musobaqalar o'ziga xos shaxmat darsi hamdir.

Ibrat

Mazkur mahallada shaxmatning keng ko'lamda rivoj topishida ustoz murabbiy, FIDE ustasi, "Shuhrat" medali sohibi, marhum Mamatqul Xaylayevning o'rni beqiyos. U Toshkentda, institutda o'qigan 90-yillarda shaxmat kitoblari va jurnallarini o'qish barobarida bevosita shaxmat o'nash bilan shug'ullandi. O'sha vaqtlarda mazkur sport turiga oid jurnallar va kitoblar, asosan, rus tilida edi. Bu esa Mamatqul Xaylayevning kelgusida o'zbek tilidagi "Shaxmat saboqlari", "Shaxmat", "Shaxmat. FIDE qoidalar", "Shaxmat alifbosi" kabi qo'llanmalari, kitoblarini yaratishiga turtki bo'ldi.

Mamatqul Xaylayev shaxmat bo'yicha taniqli va bilimdon sport jurnalisti ham edi. Ya'ni u "Sport" telekanalining "Shaxmat saboqlari" va "Shaxmat durdonalari" ko'rsatuvlarining ajoyib boshlovchisi sifatida el e'tiborini qozongandi.

Shaxmat bilimdoni O'zbekiston yoshlar terma jamoasi murabbiyi ham bo'lgan. U boshchilik qilgan o'smirlar va qizlar terma jamoasi 2008-yil Fransiyaning Parij shahrida, 2012-yil Braziliyada o'tkazilgan jahon chempionatlarida, 2014-yil Vengriyaning Budapesht shahrida o'tgan O'smirlar o'rtasidagi butunjahon shaxmat olimpiadasida g'olib va sovrindorlar qatoridan joy olgan. Qisqa umri davomida mamlakatimizda shaxmatning rivojiga salmoqli hissa ko'shgan Mamatqul Xaylayevning tug'ilib o'sgan qishlog'ida yaratgan shaxmat bo'yicha mahorat maktabi bugungi kunda ham el-yurt e'tiborida.

Binobarin, Tinchlik mahallasidan ko'plab iqtidorli shaxmatchilar yetishib chiqmoqda. Xususan, Anvar Xaylayev, Jamshid Shodiqulov kattalar birinchi ligasi musobaqalarida sport ustaligiga nomzod, Elbek Jumanov esa FIDE sport ustasi hisoblanadi. Mirjalol Qosimov, Otabek Xaylayev, Abdug'ani Ochilov esa respublika va xalqaro



miqyosdagi ko'plab turnirlarda sovrindor bo'lib kelmoqda. Albatta, bu borada Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi, taniqli shaxmatchi Sarvinov Qurbonboyeva erishgan yutuqlarni alohida e'tirof etish o'rinni. Zero, 21 karra O'zbekiston chempioni, Osiyo va jahon chempionatlari sovrindori, xalqaro ayollar grossmeyerteri Sarvinov Qurbonboyeva ham Tinchlik mahallasida tug'ilib o'sgan. Shu manzilda shaxmat bo'yicha mahoratini oshirgan sportchidir.

Bugungi kunda mahallaning



Malika Jumayeva, Lazizbek Shavkatov, Hojibakbar Alijonov, Iroda Jumayeva, Zafar Otobekov, Huroyun Saparov kabi yosh shaxmatchilari borki, ular

respublika va xalqaro miqyosdagi turnirlarda muvaffaqiyatli qatnashmoqda. E'tiborlisi, ushbu sport turi bilan shug'ullanayotgan juda yosh sportchilar ham bor. Masalan, 5 yoshli Kamola Mamatqulova Sirdaryo viloyati chempionatida qatnashdi. Tengdosh raqibi bo'lmagani bois o'zidan katta 7 yoshli shaxmatchi qizlarga qarshi dona surishiga to'g'ri keldi. U o'z iqtidori va mahorati bilan barchani qoyil qoldirdi. Yakuniy natijalarga ko'ra mazkur musobaqada ikkinchi o'rinni egallab, O'zbekiston chempionati yo'llanmasini

qo'lga kiritdi.

– Mahallamizda yaratilgan shaxmat mahorat maktabi shu sport turi bo'yicha mutaxassis bo'lishimning asosiy omiliga aylandi, – deydi Guliston shahridagi xususiy maktablardan birining shaxmat murabbiyi Samandar Jumayev. – Qishlog'imizdan yetishib chiqqan shaxmat murabbiylari ko'p. Demogichimanki, bevosita mohir shaxmatchilar bilan birga shaxmat sporti bo'yicha malakali mutaxassislarni ham ko'paymoqda. Yaqinda hamyurtimiz Javohir Sindorov erishgan yuksak natija barchamizni ruhlantirib yubordi. Bugun yoshlarimiz unga havas qilib, yangidan-yangi marralarga intilishyapti. Mahallamizda hali ko'plab jahon chempionlari ulg'ayishiga ishonchim komil.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

REKLAMA

“Elektron Realtor” MChJ



to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan olib boriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

- Andijon viloyati, Asaka tumani, "Birdamlik" MFY, Jaloliddin Manguberdi ko'chasi, 155-uyda joylashgan shifoxona binosi;
- Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri, Yangi Marg'ilon, "Rohat" MFY, Marg'inoniy ko'chasi, 440-uyda joylashgan ishlab chiqarish binosi;
- Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani, "Navbahor" MFY, Tadbirkor ko'chasi, 18-uyda joylashgan tekstil mahsulotlarini bo'yash uskunasi va binosi;
- Toshkent viloyati, Parkent tumani, "Chotqol" MFY, Tong yulduzi ko'chasi, 323 "A"-uyda joylashgan g'isht zavodi binosi va frontal pogruzhchik sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan "www.e-rieltor.uz" sayti orqali tanishasiz.

Savdoga qo'yilgan mulklar bilan bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar "e-rieltor.uz" platformasi orqali ariza berishadi.

Call-markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: "www.e-rieltor.uz"

Qiziqish bildirishga so'rov

“O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik” loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZ

Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ "O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi doirasida "UZ-DIP-529003-CS-CQS – Harakatlanish imkoniyati cheklanganlar uchun ishga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish trening dasturlari" konsalting

xizmatlari uchun muvofiq konsalting tashkilotlarini qiziqish bildirishga taklif qiladi.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2026-yil 7-yanvar soat 23:00 gacha.

Batafsil ma'lumot uchun: <udip@it-park.uz>, 71-209-11-99, +99890 929-60-49.

“E-AUTOTECH” MChJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan olib boriladigan avto, maxsus transport, uskunalar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

– Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, "Qanjirga" MFYda joylashgan quvur ishlab chiqarish uskunasi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan "e-autotech.uz" sayti orqali tanishasiz.

Savdoga qo'yilgan mulklar bilan bevosita joyiga chiqib tanishish mumkin.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar "e-autotech.uz" platformasi orqali ariza berishadi.



E-AUTOTECH

Call-markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: "e-autotech.uz"

TRANSPORT

yangiliklari

TOSHKENTDAN QOZONGA POYEZD QATNAYDI

Yo'lovchilar uchun yana bir qulaylik: Toshkent – Qozon – Toshkent xalqaro temir yo'l yo'nalishi bo'yicha qatnovlar qayta ochildi.



Ta'kidlash joizki, bu O'zbekiston – Rossiya o'rtasidagi transport aloqalarini yanada mustahkamlash, shuningdek, yo'lovchilarga xavfsiz va qulay sayohat imkoniyatini taqdim etishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Transport vazirligi xabariga ko'ra, yakshanba kuni Toshkent Markaziy vokzalidan jo'nab ketgan dastlabki 315-sonli poyezd kecha Qozon vokzaliga yetib borgan bo'lsa, 316-sonli poyezd esa bugun soat 10:33 da Qozon vokzalidan jo'nab, yakshanba kuni soat 04:32 da Toshkent Markaziy vokzaliga yetib kelishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun, ushbu yo'nalishda haftasiga bir marta harakatlanadigan poyezd tarkibi jami yettita vagondan iborat bo'lib, 342 nafar yo'lovchini tashish imkoniyatiga ega.

“UZBEKISTAN AIRPORTS” KOMPANIYASI ESG REYTINGINI OLDI

“Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi “Uzbekistan Airports”ga 48 ball bilan 3-darajali ESG reytingini berdi. Bu kompaniyaning kuchli ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv yo'nalishidagi barqaror profilini tasdiqlaydi.



Hisobotning ekologik bo'limida agentlik "Uzbekistan Airports"ning 2050-yilga kelib 1 va 2-darajali gaz chiqindilarini chiqarish bo'yicha "Net Zero"ga erishish strategiyasini yuqori baholadi. Uglerod zichligini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish choralarini ham qayd etildi. Ijtimoiy sohada kompaniyaning mehnat xavfsizligi tizimi, ishchi kuchi barqarorligi va manfaatdor tomonlar bilan aloqalar ijobiy baholandi.

Ushbu reyting kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish imkonini beradi.

KONTEYNER TASHUVLARI – YEVROPAGA



Mamlakatimizdan Turkmanboshi portlariga reja-grafik asosida blok poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha muhim vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "O'ztemiryo'lkonteyner" AJ tomonidan Turkmanboshi porti orqali Yevropa davlatlariga yo'naltirilgan konteyner tashuvlari yo'lga qo'yildi.

Xususan, mineral o'g'itlar, kaliy, karbamid, alyuminiy va mis kabi yuklar ortilgan jami 18 ta blok poyezdi muvaffaqiyatli jo'natildi. Jumladan, joriy yil davomida Sergeli stansiyasidan 380 ta konteyner, Nazarbek stansiyasidan 228 ta hamda Asaka stansiyasidan 25 ta konteyner Italiya, Gretsiya, Turkiya, Bolgariya, Shvetsariya, Ozarbayjon va boshqa xorij mamlakatlariga yetkazib berildi.

Mazkur yo'nalishda blok poyezdlar qatnovining yo'lga qo'yilishi O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish, transport-logistika tizimini diversifikatsiyalash, xalqaro transport koridorlaridagi raqobatdoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahim SHERKULOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

Kuvaytda ilk bor o'tkazilgan “Kuwait International Gold & Jewelry Exhibition” xalqaro ko'rgazmasida o'zbek milliy va zamonaviy zargarlik buyumlari namoyish etildi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilbi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.40

1 2 3 4 5 6